

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TUREKEEV XOJAAXMETJAN SABI'RBAEVICH

**KREMNIYDA FOSFOR VA GALLIY BINAR BIRIKMALARINING
SHAKLLANISHINI BOSHQARISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Fizika–matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Turekeev Hojaaxmetjan Sabi'rbievich Kremniyda fosfor va galliy binar birikmalarining shakllanishini boshqarish.....	3
Турекеев Хожаахметжан Сабырбаевич Управление формированием бинарных соединений фосфора и галлия в кремнии.....	21
Turekeev Hojaaxmetjan Sabi'rbievich Controlling the formation of binary compounds of phosphorus and gallium in silicon.....	39
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TUREKEEV XOJAAXMETJAN SABI'RBAEVICH

**KREMNIYDA FOSFOR VA GALLIY BINAR BIRIKMALARINING
SHAKLLANISHINI BOSHQARISH**

01.04.10 –Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.3. PhD/FM488 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbari:

Zikrillaev Nurullo Fatxullaevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyev Baxrom Egamberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mamadaliyeva Lola Kamiljanovna
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


O'zR FA Fizika-texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «18» 10 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Tashkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz.)

Dissertatsiya bilan Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'limida tanishish mumkin. (58- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «03» 10 kuni tarqatildi.

(2023 yil «03» 10 dagi 58- raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.B. Utamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J. J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, (PhD) k.i.x.

N.A. Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirda dunyo miqyosida mikro- va nanoelektronikali yarimo‘tkazgichlar asosidagi qurilma va asboblarni ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi materialshunoslik va asbobsozlik sohasida faoliyat olib borayotgan tadqiqotchi olim va mutaxassislarni yangi turdagi material va strukturalar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortishiga zamin yaratadi. Bu yo‘nalishda optoelektronika va fotoenergetika sohalari uchun kremniy asosida o‘ziga xos o‘zgacha elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlarga ega materiallar va strukturalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar orqali aniqlangan kremniy kristall panjarasiga kimyoviy elementlar jadvalining III va V guruhiga oid elementlar atomlari kiritilgan kremniyning elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlari avval ma’lum bo‘lmagan jihatlarni namoyon eta olishi tadqiqotchi olim va mutaxassislarning e’tiborini tobora jalb qilmoqda. Noyob xususiyatlarga ega elektron qurilmalarni yaratish uchun tadqiq qilingan va o‘rganilgan elektrofizik xossalari tufayli (jumladan tashqi ta’sirlarga o‘ta sezuvchanligi, yorug‘likni yutish spektrini kengaytirish imkoniyati, yaratilgan qurilmalarning ishlash muddatini uzaytirishi va ishlash tezligini oshirish, issiqlik va radiatsiyaga chidamligini ko‘rsatib o‘tish mumkin) ta’qiqlangan sohada chuqur energetik sathlar hosil qiladigan kirishma atomlar bilan legirlangan kompensatsiyalangan kremniydan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Shu bilan birga, mikro- va nanoelektronikaning intensiv rivojlanishi optoelektronika va fotoenergetika uchun yangi imkoniyatlarga ega bo‘lgan kremniy olishning takrorlanadigan texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchi olimlar kremniy asosidagi yangi materiallarni olishning turli texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash natijasida olingan materiallarning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini o‘rganish, o‘z navbatida yangi elektron qurilmalarni ishlab chiqarishda ushbu materiallardan asos sifatida foydalanishga katta e’tibor bermoqdalar.

Respublikamizda yangi materiallar yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari samaradorligini oshirish va ulardan keng foydalanishga xizmat qiladi. 2022-2026 yillarga rejalashtirilgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish»¹ bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tarkibida yangi turdagi binar birikmalarga ega materialga asoslangan fotoelementlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» gi farmoni, 2020 yil 10 iyuldagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28 yanvardagi PF–60–son “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi, 2021 yil 9 apreldagi PQ-5063-son «O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son «Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarini hamda mazkur faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarining III. «Energiya, energiya resurslarni tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi vaqtlarda nanotexnologiya va nanoelektronika sohasida ish olib boradigan olimlar va mutaxassislar kirishma atomlarining nanoklasterlarini o'rganish, xususan, turli xil kirishma atomlari asosida binar birikmalarni hosil qilish texnologiyalarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Chet el olimlari S. Adachi va boshqalar elementar va birikmali yarimo'tkazgichlarning fizik xossalarini o'rganishgan, shuningdek J. Kang, J.S. Kang, P. Stradins, S.H. Wei kremniydagi izovalent bo'lmagan Si-III-V va Si-II-VI qotishmali birikmalarning kovalent, ionli va aralash fazalarini tadqiq qilishgan. Rossiyalik olimlar Yu.V. Jilyaev, V.V. Krivolapchuk, N. Nazarov, I.P. Nikitina, N.K. Poletaev, D.V. Sergeev, V.V. Travnikov, L.M. Fedorov va boshqalar kremniy tagligida o'stirilgan galliy fosfid epitaksial qatlamlarning past haroratli fotolyuminesentsiyasini o'rganishgan. V.V.Evstropov, Yu.V.Jilyaev, N. Nazarov, D.V. Sergeev, L.M. Fedorov galliy fosfidning gaz fazali epitaksiyasi bilan olingan anizotipik GaP/Si geterostrukturalarining elektr va fotoelektrik xossalarini tadqiq qilishgan. Rossiyalik olimlar A.V. Uvarov, K.S. Zelentsov, A.S. Gudovskiylar atom qatlamli plazma kimyoviy cho'ktirish usulida olingan GaP/Si geterostrukturalarning fotoelektrik xossalariga termik qizdirishning ta'sirini tadqiq qilganlar.

O'zbekistonda akademik M.K. Bahadirxanov ilmiy maktabida professorlar N.F. Zikrillaev va X.M. Iliev marganets, xrom va yevropiy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda magnit nanoklasterlari hosil bo'lishini o'rgandilar va ilmiy asosladilar. Akademik A.T. Mamadalimovning ilmiy maktabida turli xil kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning fotoo'tkazuvchanligi va uni past haroratlarda tadqiq qilingan, akademik R.A. Mo'minovning ilmiy maktabida litiy bilan legirlangan kremniy asosidagi yadro nurlanish detektori ishlab chiqilgan, akademik M.A. Saidov ilmiy maktabida $(Si_2)_{1-x}(GaP)_x$ turdagi qattiq eritmalarni o'stirishning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Akademik S.Z. Zaynabiddinov va

professor Sh.B.Utamuradova kremniyda chuqur energetik sathlar hosil qilgan kirishma atomlarining energetik sathlarini fotohajmiy spektroskopiya usuli yordamida o'rganishgan.

Biroq bugungi kunga qadar kremniy kristall panjarasida galliy va fosfor atomlari hosil qilgan birikmalarining hosil bo'lishi va ularning elektrofizik parametrlari o'rganilmagan. GaP binar birikmalari mavjud kremniy materialining elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini boshqarish va fizik mexanizmlari o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining OT-F2-50 «Kremniy panjarasida $A^{II}B^{VI}$ va $A^{III}B^V$ yarimo'tkazgich birikmalarning elementar yacheykalari shakllanishining ilmiy asoslarini ishlab chiqish–fotoenergetika va fotonika uchun istiqbolli materiallar olishdagi yangi yondashuv», hamda OT-F2-55 «Yangi funktsional imkoniyatlarga ega nanomateriallarning yangi sinfi sifatidagi kirishma atomlarning nanoklasterlarini shakllanishi negizida hajmiy strukturalashgan kremniy olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi kremniy asosidagi fosfor va galliy kirishma atomlarining binar birikmalarining elektrofizik, fotoelektrik va optik xossalarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

kremniy panjarasida fosfor va galliy kirishma atomlarining Si_2GaP turdagi binar birikmalar hosil bo'lishining optimal termodinamik sharoitlari va texnologik bosqichlarini aniqlash;

fosfor va galliy kirishma atomlarining kremniydagi kontsentratsiya taqsimotini ushbu atomlarning diffuziya koeffitsientini hisobga olgan holda tadqiq qilish;

fosfor va galliy kirishma atomlarining kristall kremniy namunalari sirt oldi qatlamida hosil qilgan binar birikmalarning zaryad tashuvchilarining harakatchanligini o'rganish;

fosfor va galliy kirishma atomlarining binar birikmalariga ega bo'lgan kremniyning elektrofizik, fotoelektrik va optik xossalarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida dastlabki turli kontsentratsiyali bor va fosfor bilan legirlangan KDB va KEF markali sanoat monokristall kremniy, fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy olingan.

Tadqiqotning predmeti fosfor va galliy kirishma atomlarining kremniy panjarasidagi parametrlari va xususiyatlarini boshqarish uchun termodinamik sharoitlarini va texnologik bosqichlarni aniqlash, fosfor va galliy kirishma atomlarining binar birikmalari mavjud kremniyning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalarni yechish uchun quyidagi usullar qo'llanilgan: tadqiqot jarayonida kirishma atomlarni legirlash gaz fazasidan diffuzion texnologiya asosida amalga oshirilgan. Spektrometrik tadqiqotlar IKS-12 qurilmasida, Xoll o'lchashlari Van der Pauw Ecopia HMS-3000 markali qurilmada

Van-der-Pau usulida, olingan namunalarning element tarkibi EVO MA10 markali skanerlovchi elektron mikroskop va JSM-IT200 markali rasterlovchi elektron mikroskop yordamida tadqiq qilingan. Empyrean rentgen difraktometri, Senterra II The Next Level of Compact Raman Microscopy markali Raman spektroskopiyasi strukturaviy xossalarni tadqiq etish uchun foydalanilgan. DILB832 markali vakuum qurilmasida vakuum-termik bug‘lanish o‘tkazilgan. Solver Next markali atom kuchlari mikroskopida olingan kremniy namunalarning sirt morfologiyasi o‘rganilgan hamda boshqa zamonaviy standart usul va qurilmalardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor kristall panjarasida fosfor va galliy kirishma atomlariga ega bo‘lgan monokristall kremniy asosida Si_2GaP binar birikmalarini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ilk bor $T=1000\div 1250$ °C harorat oralig‘ida fosfor bilan qo‘shimcha legirlangan n-Si ga galliy kirishmasi diffuziya qilinganda galliy atomlarining konsentratsiyasi fosforsiz namunalarga nisbatan 6-10 marta oshishi aniqlangan;

galliy va fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda elektronlarning harakatchanligi faqat fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari qaranganda 2÷3 baravar kam ekanligi aniqlangan;

kremniyda binar birikmalarning mavjudligi Si_2GaP birikmali kremniy asosida yaratilgan fotoelementlarning ($\lambda=380\div 760$ nm) sezgirlik spektral diapazonining kengayishiga olib kelishi aniqlangan;

ilk bor fosfor va galliy atomlarining binar birikmalari asosida geterovarizon strukturali barqaror parametrlarga ega yuqori samarali fotoelementlarni tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kremniy panjarasida Si_2GaP ko‘rinishidagi fosfor va galliy kirishma atomlari ishtirokida yangi binar birikmalar hosil bo‘lishining optimal termodinamik sharoitlari va texnologik bosqichlari $T=1000\div 1250$ °C harorat oralig‘ida bo‘lishi aniqlangan;

kremniy panjarasida hosil bo‘lgan Si_2GaP turdagi binar birikmalar asosida geterovarizon struktura olingan, bu spektral sezgirlik oralig‘i kengaytirilgan fotodiodlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy o‘lchash vositalar va tadqiqot usullarining qo‘llanilganligi, eksperimental va hisoblangan ma’lumotlarni boshqa mualliflarning nazariy natijalari bilan muvofiqligi, shuningdek olingan natijalarni zamonaviy fizik modellar asosida tavsiflanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati geterovarizon strukturaning zaryad tashish mexanizmlari, kremniyda Si_2GaP turdagi birikmalarning shakllanish mexanizmlari nazariy jihatdan asoslangan va tajribalar orqali aniqlangan.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati elektron qurilmalar va asboblar ishlab chiqarishda foydalanadigan kremniy asosidagi GaP binar birikmalarining geterovarizon strukturasi olishning termodinamik shartlari va texnologik bosqichlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy asosida yaratilgan fotodiodlarning spektral sezgirliги diapazonini kengaytirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan kremniy panjarasida yangi turdagi Si₂GaP birikmalarni olish texnologiyasi «FOTON» aksiyadorlik jamiyati tomonidan qo'llanilgan («O'zeltexsanoat» uyushmasining 2022 yil 28 dekabrda 04-3/2744-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish «FOTON» AJ da qo'llash asosida fosfor va galliy atomlarining binar birikmalarini o'z ichiga olgan monokristall kremniy asosida yaratilgan fotodiodlarning spektral sezgirliги diapazonini kengaytirishga erishilgan. Ishlab chiqilgan diffuziya texnologiyasidan foydalanish energiya sarfini tejashga va kirishma atomlarining diffuziya vaqtini kamaytirishga imkon bergan;

dissertatsiyani bajarishda olingan ilmiy natijalardan Samarqand davlat universiteti Qattiq jismlar fizikasi kafedrasida 2017-2021 yillarda OT-F2-37-raqamli "Gaz aralashmasini tovushdan tez oqimidan foydalanib metallarni eritish, g'ovak metallar olish va ularning fizik xossalarni tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 fevralda 89-02-86-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish barqaror parametrlarga ega, fosfor va galliy atomlarining binar birikmalari asosidagi geterovarizon strukturali yuqori samarador fotoelementlarini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ma'ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 17 ta ilmiy ishda, ulardan 7 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 3 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 48 ta rasm, 11 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari asoslab berilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati qisqacha tavsiflangan, olingan asosiy natijalar va ularni «FOTON» AJ va Samarqand davlat universitetida amaliyotda qo'llanganligi to'g'risida ma'lumot berilgan.

«Uchinchi va beshinchi guruh elementlarining kremniydagi binar birikmalarining tuzilishi va xususiyatlari» nomli birinchi bobida binar nanoklasterlar, III va V guruh elementlarining kremniyda yangi binar birikmalarni shakllantirishdagi diffuziya usullari, termodinamik sharoitlar va ularning kremniydagi xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, III va V guruhlardagi elementlarning atomlari bilan legirlangan kremniyning fizik xususiyatlari va strukturaviy xarakteristikalari batafsil tadqiq qilingan. Biroq fosfor va galliy kirishma atomlari hosil qilgan binar birikmalarning kremniyga ta'siri bugungi kungacha o'rganilmaganligi ko'rsatib berilgan. Bob oxirida ushbu dissertatsiya ishini amalga oshirishdagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlar belgilangan.

«**Fosfor va galliyning kremniyda binar birikmalarini olish texnologiyasi va tadqiqot usullari**» deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida monokristall kremniyga fosfor va galliy kirishma atomlarini gaz holatidan diffuziya qilishning texnologik jarayonlarini aniqlash va tahlil qilish, hamda kirishma atomlarning kremniydagi diffuziya mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu bobda dissertatsiyani bajarishda foydalanilgan elektrofizik va fotoelektrik o'lchov usullari va zamonaviy elektron mikroskop va spektrometrlarning imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Fosfor va galliy atomlarining kremniyga diffuziyasini uch xil usulda amalga oshirilish texnologiyasi keltirilgan.

1. Ketma-ket diffuziya (avval fosfor atomlarining, keyin galliy atomlarining diffuziyasi).

2. Birgalikdagi diffuziya (fosfor va galliy atomlarining kukun shaklidagi galliy fosfiddan kremniyga diffuziyasi).



3. Kremniy namunalari sirtiga purkalgan galliy fosfidining diffuziyasi.

Ikkinchi bob oxirida fosfor va galliy atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari olishning texnologik bosqichlari hamda Si_2GaP turdagi binar birikmalari bo'lgan kremniy namunalari elektrofizik, fotoelektrik va optik tadqiq qilish usullari batafsil tavsiflangan.

«**Fosfor va galliy kirishma atomlarining kremniydagi binar birikmalarini tayyorlash texnologiyasi**» deb nomlangan uchinchi bobda galliy va fosfor kirishma atomlarining kremniydagi konsentratsiya taqsimotini tadqiq qilish natijalari va kremniy sirtida binar birikmalarning konsentratsiyasini oshirish usullari keltirilgan.


Birgalikdagi diffuziya uchun FGECH-1-17 markali sof galliy fosfid kristallini maydalash orqali olingan kukuni ishlatilgan. Kremniy namunalari kerakli mexanik va kimyoviy ishlov berilgandan so'ng galliy fosfid kukuni gaz fazasidan $T=1250\text{ }^\circ\text{C}$ da $t=2$ soat vaqt davomida diffuziya qilingan.

1-rasmda kremniy namunalari galliy va fosfor kirishma atomlari diffuziyasidan so'ng EVO MA 10 markali skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida tadqiq etish orqali olingan o'lchash natijalari ko'rsatilgan bo'lib, bu natijalar kremniy namunalari sirtida hosil bo'lgan qatlamning element tarkibini aniqlashga imkon bergan.




1-rasm. Si namunasi sirtining GaP kukuni diffuziyasidan keyingi tashqi ko‘rinishi (a) va element tarkibi (b)

2-rasmda kremniy namunalardagi fosfor va galliy atomlarining $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ va $t=2$ soat vaqt davomidagi diffuziyasidan keyingi konsentratsion taqsimoti keltirilgan. Shuningdek kremniyga fosfor atomlarining $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ va $t=2$ soat vaqt davomidagi diffuziyasining konsentratsion taqsimoti ham berilgan.




2-rasm. Zaryad tashuvchilarning $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$, $t=2$ soat diffuziyadan keyingi Ga va P atomlari bilan bir vaqtda legirlangan (1) va P atomlari bilan legirlangan (2) Si dagi konsentratsion taqsimoti




3-rasm. Namunalardagi zaryad tashuvchilarning galliy va fosfor atomlarining birgalikdagi diffuziyasidan keyingi (1) va galliy atomlarining diffuziyasidan keyingi konsentratsion taqsimoti

Olingan natijalar asosida (3-rasm, 1 va 2 egrilar) $N_{Ga} = n_0 - n_1$ elektroneytrallik tenglamasi yordamida sirtga nisbatan $x=0\div6\text{ } \mu\text{m}$ chuqurlik sohasida fosfor va galliy atomlari bilan birgalikda legirlangan kremniydagi galliy atomlarining konsentratsiyasi hisoblandi, bunda n_0 – faqat fosfor atomlari bilan $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$, $t=2$ soat vaqt oralig‘ida legirlangan namunadagi fosfor kirishma atomlarining konsentratsiyasi, n_1 – fosfor va galliy atomlari bilan birgalikda legirlangan kremniydagi fosfor atomlari konsentratsiyasi.

4-rasmda Van der Pau usuli yordamida fosfor va galliy atomlari bilan birgalikda legirlangan va faqat fosfor atomlari bilan legirlangan kremniydagi zaryad tashuvchilarning harakatchanligini sirtga nisbatan chuqurligini o‘zgarishdagi natijalar keltirilgan.




4–rasm. Fosfor kirishma atomlari (1) va fosfor va galliy kirishma atomlari birgalikda legirlangan (2) kremniydagi elektronlar harakatchanligining joylashish chuqurligiga bo‘g‘liqligi




5–rasm. T=1250 °C, t=4 soat vaqtda qo‘shimcha qizdirilgan kremniy namunalaridagi P kirishma atomlarining (1), Ga zaryad tashuvchilarining oldin P bilan legirlangan kremniyning chuqurlik bo‘yicha konsentratsion taqsimoti (2). n va p –kremniyning o‘tkazuvchanlik turi

5-rasmda fosfor va galliy kirishma atomlarining ketma-ket diffuziyadan keyingi tajriba natijalari ko‘rsatilgan. T=1250 °C va t=4 soat vaqt davomida qo‘shimcha qizdirilgan kremniy namunalaridagi fosforning konsentratsion taqsimoti (1 egri), oldin fosfor bilan T=1000 °C, t=2 soat vaqt davomida legirlangan kremniyga galliy atomlarining T=1250 °C, t=4 soat vaqt davomida legirlangandagi konsentratsion taqsimoti (2 egri).

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida galliy atomlarining kremniydagi konsentratsiyasi sezilarli darajada oshishi fosfor atomlarining konsentratsiyasi galliy atomlarining konsentratsiyasidan katta yoki teng bo‘lganda sodir bo‘lishi aniqlandi ($N_p \geq N_{Ga}$) (6-rasm). Shunday qilib, fosforning yuqori konsentratsiyasi bilan kremniydagi galliy atomlari konsentratsiyasining ortishi kremniy panjarasida elektroneytral molekular ko‘rinishidagi binar birikmalarning shakllanishi bilan bog‘liqligini ta’kidlash mumkin (7-rasm).




6-rasm. Nazorat namunalaridagi galliyning (1) va fosfori bor galliyning (2) konsentratsion taqsimoti



7-rasm. Kremniydagi $\text{Si}_2\text{Ga}\cdot\text{P}^+$ tipidagi binar elektroneytral birikmasi

Buni Van der Pau usuli bilan olingan kremniy namunasining qalinligi bo‘ylab zaryad tashuvchilarning harakatchanligini tadqiq qilish natijalari ham tasdiqladi. 8-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 8 mkm chuqurlikgacha galliy atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari (fosfor atomlari bilan oldindan legirlangan) n turdagi o‘tkazuvchanlikka ega bo‘ldi. Fosfor va galliy atomlarini binar birikmalari bilan legirlangan kremniydagi elektronlarning harakatchanligi faqat fosfor atomlari bilan legirlangan namunadagi elektronlarning harakatchanligidan 2÷3 baravar kam bo‘lishi aniqlandi.



8-rasm. Si namunalariidagi faqat P atomlari bilan legirlangan (1) va galliy bilan legirlangan P atomlari bor Si namunalariidagi (2) zaryad tashuvchilari harakatchanligining chuqurlikka bog‘liqligi

Shuni ham ta’kidlash kerakki, faqat fosfor bilan legirlangan kremniydagi elektronlarning konsentratsiyasi fosfor va galliy bilan legirlangan kremniydagi elektronlar konsentratsiyasidan bir darajaga yuqori bo‘ldi.

Diffuziya uchun FGECH-1-17 markali toza monokristall galliy fosfidini maydalash yo‘li bilan olingan, 200-300 mkm kukun holdagi, galliy fosfidini


vakuumda purkalgan qatlamidan foydalanildi. Kremniy sirtiga qalinligi ~1 mkm bo‘lgan yupqa qatlam DILB832 vakuum qurilmasida termik bug‘latish usuli bilan hosil qilindi.

GaP yupqa qatlamga ega kremniy namunalarining sirt morfologiyasi va tarkibini aniqlash uchun JSM-IT200 markali rasterlovchi elektron mikroskop (REM) yordamida tekshirildi (9-rasm va 1-jadval).

1-jadval va 9-rasmga skanerlovchi elektron mikroskop yordamida aniqlangan kremniy sirtidagi GaP yupqa qatlamining tarkibi ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Element	Mass %	Atom %
Si	90,62±0,23	94,12±0,24
P	3,74±0,08	3,52±0,07
Ga	5,65±0,18	2,36±0,08




9-rasm. Kremniy sirtida hosil qilingan galliy fosfidi yupqa qatlamining element tarkibi

Hosil qilingan GaP yupqa qatlamining diffuziyasidan keyingi uning tarkibi rasterlovchi elektron mikroskop JSM-IT200 yordamida qayta tadqiq qilindi (10-rasm va 2-jadval).


2-jadval

Element	Mass %	Atom %
Si	97,52±0,32	98,29±0,33
P	1,39±0,08	1,27±0,07
Ga	1,10±0,14	0,45±0,06




10-rasm. Purkalgan GaP qatlamidan Ga va P atomlari diffuziya qilingandan keyingi Si sirtining element tarkibi

11-rasmga kremniy namunasining yon tomondan REM JSM-IT200 yordamida o‘lchangan fosfor va galliy kirishma atomlarining konsentratsion taqsimoti keltirilgan.



11-rasm. GaP purkalgan qatlamidan Ga va P atomlari Si ga kiritilgan namunaning yon tomonidan REM yordamida o‘lchangan konsentratsion taqsimoti. Nazariy hisoblangan natija bo‘yicha P atomlari uchun (1), Ga atomlari uchun (2), tajribada aniqlangan natija bo‘yicha P atomlari uchun (3), Ga atomlari uchun (4)



12-rasm. Fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan (1) va galliy fosfidining purkalgan qatlamidan legirlangan (2) kremniydagi zaryad tashuvchilarning harakatchanligining joylashish chuqurligiga bog‘liqligi

12-rasmda kremniy namunalarning zaryad tashuvchilar harakatchanligining chuqurlik bo‘yicha Van-der-Pau usulida aniqlangan taqsimoti keltirilgan. Harakatchanlikning bunday kuchli pasayishi galliy atomlarining elektroaktiv qismi mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, uni ionlashgan fosfor konsentratsiyasi bilan solishtirish (fosforning elektroaktiv konsentratsiyasining yarmi tartibida), shuningdek hosil bo‘lgan birikmalar ta’sirida elektronlar tarqalishining ortishi bilan taxmin qilish mumkin.

Bundan tashqari, zaryad tashuvchilarning harakatchanligining pasayishi panjara bir hil bo‘lmaganligi bilan bog‘liq sochilishi (kremniy panjarasida $(\text{GaP})_n$ turdagi multikomplekslar) va ularning sirt konsentratsiyasi yetarlicha yuqori bo‘lganligi sababli bo‘lishi mumkin.


Kremniy panjarasidagi galliy va fosfor atomlarining o‘zaro ta’sirining Kulon energiyasi qiymatini nazariy hisoblashlar uning $\sim 0,5$ eV ga teng bo‘lishi aniqlandi. Bu Arrenius nisbati bo‘yicha muvozanat sharoitida galliy atomlari konsentratsiyasini ~ 10 martagacha oshishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi va bu olingan tajriba natijalariga mos keladi.

«Fosfor va galliy kirishma atomlarining binar birikmalari mavjud kremniyning fotoelektrik va optik xususiyatlari» nomli to‘rtinchi bobda diffuziya usuli bilan gaz fazasidan fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning fotoelektrik va optik xususiyatlari o‘rganilgan. Hosil bo‘lgan binar birikmalarning fotoelektrik va optik tadqiqotlarining natijalari, yorug‘likning kombinatsion sochilish spektri va namunalarning element tarkibining rentgenogrammasi keltirilgan. Kremniyda fosfor va galliy atomlarining binar


birikmalarining shakllanish mexanizmi taklif etilgan, tadqiqotlar natijalariga asoslangan asosiy ilmiy xulosalar keltirilgan.

13-rasmda monokristall galliy fosfidi namunasining yorug'likning kombinatsion sochilishidagi spektri ko'rsatilgan. $T=300$ K haroratda olingan spektrlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, spektrda galliy fosfid atomlariga mos keladigan ~ 363 sm^{-1} va ~ 403 sm^{-1} cho'qqilari kuzatildi.

Galliy va fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning $T=300$ K haroratda yorug'likning kombinatsion sochilishining spektrida 365 sm^{-1} , 404 sm^{-1} va 514 sm^{-1} cho'qqilar kuzatildi (14-rasm). Bu kremniy sirtida fosfor va galliy kirishma atomlarining birikmalarini hosil bo'lishini taxmin qilishga imkon beradi.




13-rasm. FGECH-1-17 markali sof galliy fosfida yorug'likning kombinatsion sochilish spektri



14-rasm. Fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda yorug'likning kombinatsion sochilish spektri


15-rasmda fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning rentgenogrammasi keltirilgan.



15-rasm. Ga va P kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning rentgenogrammasi

Difraksiya tasviridan ko‘rinib turganidek, turli xil intensivlikda bir nechta reflekslar hosil bo‘ldi. $h00$ turdagi bir necha reflekslar ($h=1,2,3,\dots$), yuqori intensivlikda 200_{GaP} $d/n=0,546$ nm va 400_{Si} $d/n=0,27$ nm reflekslar kuzatildi. 400_{Si} refleksining nisbatan tor, ammo yuqori intensivligi ($4 \cdot 10^5$ impuls/s) kremniyning asosiy matritsa atomlariga mos kelishi aniqlandi.

16-rasmda AKM yordamida olingan fosfor va galliy atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari sirtining rasmi ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinadi, kremniy namunalari sirtining tashqi ko‘rinishi fosfor va galliy kirishma atomlari hosil qilgan birikmalarning kontsentratsiyasi va zaryadiga bog‘liq bo‘lib sirt relefining notekisligi kuchli bo‘lishiga sabab bo‘lar ekan.



16-rasm. Fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan (a) va fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan (b) kremniy yuzasining AKMda olingan rasmlari


Rasmdan ko‘rinadi, fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy sirtida tarkibiy qismlarga asoslangan orolchalarning shakllanishi fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyga qaraganda o‘rtacha g‘adur-budurligini $\sim 1,6$ baravar oshiradi.

Ma‘lumki, kremniy panjarasida fosfor atomlari kristall tugunlarida musbat zaryadlangan ion – P^+ ko‘rinishida joylashgan bo‘lib, o‘tkazuvchanlik sohasida qo‘shimcha elektronlarni hosil qiladi, ularning qiymati $N_{p^+}=n$ ga teng bo‘ladi. Musbat zaryadlangan fosfor (P^+) atomlari kristall sirtidan kremniy chuqurligiga qarab taqsimlangan elektr potentsiallarini hosil qiladi va diffuziya paytida galliy atomlarining kontsentratsiyasi ortishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida kremniyda manfiy galliy (Ga^-) ionlari shaklidagi aktseptorlarni hosil qiladi. Fosfor va galliy atomlari o‘zaro ta‘sir natijasida kremniy panjarasida donor-aktseptor binar birikmalarini, ya‘ni neytral kvazi-molekulalarni $[Ga^-P^+]$ shakllantiradi.

17-rasmda faqat fosfor atomlari bilan legirlangan (1-egri chiziq) va galliy fosfidi bilan legirlangan (2-egri chiziq) kremniy asosida olingan p-n o‘tishning qisqa tutashuv tokining spektral sezgirligi keltirilgan.

Fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning fotoelektrik xossalari spektr sezuvchanligidan ko‘rinadigan nurlarining soha oralig‘i tomon

sezilarli kengayadi. Bunday muhim ilmiy natijalar kremniyda Si_2GaP turidagi binar birikmalar shakllanadi deb taxmin qilishga asos bo‘ladi.



17-rasm. P kirishma atomlari bilan (1) va Ga va P kirishma atomlari bilan (2) legirlangan Si ning fotoelektrik xossalari

Kremniy panjarasida galliy va fosfor kirishma atomlarining binar birikmalarining shakllanish mexanizmlari

Olingan tajriba natijalarini donor (P) va aktseptor (Ga) kirishma atomlarining o‘zaro kompensatsiyasi bilan izohlab bo‘lmaydi. Si panjarasida P va Ga atomlari xaotik taqsimlanadi va bu atomlar Si da fazoviy ravishda bir-biridan ajralgan bo‘ladi. Bu P atomlarining muayyan konsentratsiyasida Ga atomlarining konsentratsiyasi oshishiga ta‘sir qilishini anglatmaydi. Shuning uchun olingan tadqiqot natijalaridan Ga va P atomlarining kremniyda birikmalar hosil qilib o‘zaro ta‘sirlashishi bilan tushuntirish mumkin.

Olingan natijalarni tahlil qilish ko‘rsatadi ki bunday birikmalar faqat Ga va P atomlari o‘zaro yaqin joylashgan hollarda, ya‘ni Si panjarasida qo‘shni ikkita tugunni egallaganlarida mavjud bo‘lishi mumkin.

Bu omillarning barchasi fosfor va galliy binar birikmalarining shakllanishini rag‘batlantiradi. Si da P atomlarining etarlicha yuqori konsentratsiyasini mavjudligi Ga atomlari diffuziya qilganda ularning konsentratsiyasini oshirishi uchun yanada qulay sharoit yaratadi. Shunday qilib, Ga atomlarining Si dagi miqdorining oshishi P konsentratsiyasining Si panjarasida elektroneytral molekular shaklida birikmalarining shakllanishi bilan bog‘liq deb ta‘kidlash mumkin.

Shu bilan birga, Si panjarasining qo‘shni tugunlarida joylashgan Ga va P binar birikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq quyidagi juda qiziqarli holatlarni ham ta‘kidlash kerak. Si panjarasida bunday birikmalar hosil bo‘lganda, Si_2GaP^+ turdagi yangi binar elektroneytral birikmalar hosil bo‘lar ekan.

Bunday binar birikmalar, boshlang‘ich Si ning elementar panjarasidan farqli o‘laroq qisman ion, qisman kovalent bog‘lanishlarga va ularga mos energetik tuzilishga ega bo‘ladi. Bunday binar birikmalarining yetarlicha yuqori konsentratsiyalarida bo‘lishi Si ning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatar ekan, ya‘ni Si ning asosiy elektrofizik

parametrlarida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi, bu bizga Si asosidagi yangi materialni olishga imkon beradi.

Xulosa o'rnida, ushbu dissertatsiya ishimni bajarishda o'zlarining amaliy va qimmatli maslahatlari bilan yordam bergan rahmatli ustozim akademik M.K.Baxadirxanovga, ilmiy rahbarim professor N.F.Zikrillaevga va TDTU «Raqamli elektronika va mikroelektronika» kafedrasining barcha jamoasiga yordamlari va qo'llab quvvatlaganlari uchun o'zimning chuqur minnotdarchiligimni bildiraman.

XULOSA

1. Ilk bor kremniy panjarasida Si_2GaP ko'rinishidagi fosfor va galliy kirishma atomlari ishtirokida yangi binar birikmalar hosil bo'lishining termodinamik shartlari aniqlandi. $T=1000\div 1250$ °C harorat oralig'ida fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlanganda kremniy panjarasida binar birikmalarni shakllantirishning optimal texnologik rejimlari aniqlandi.

2. Fosfor atomlarining yuqori konsentratsiyasi bilan oldindan legirlangan kremniyda ($N_P \geq N_{Ga}$) galliy kirishma atomlarining diffuziyasida konsentratsiyasi sezilarli darajada oshishi aniqlangan.

3. Ilk bor bir vaqtning o'zida galliy va fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari elektronlarning harakatchanligi faqat fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari qaraganda 2–3 baravar kam ekanligi aniqlandi.

4. Kremniy panjarasida hosil bo'lgan galliy-fosfor binar birikmalarining Kulon bog'lanish energiyasi $\sim 0,5$ eV ga teng ekanligi aniqlandi.

5. Kremniy panjarasida fosfor va galliyning binar birikmalari shakllanganda qisman ion va qisman kovalent bog'lanishga va mos energetik tuzilishga ega Si_2GaP tipidagi yangi elektroneytral binar birikmalar hosil bo'lishi aniqlandi.

6. Kremniyda binar birikmalarning mavjudligi Si_2GaP birikmali kremniy asosida yaratilgan fotoelementlarning ($\lambda=380\div 760$ nm) sezgirlik spektral diapazonining kengayishiga olib kelishi aniqlandi.

7. Ilk bor fosfor va galliy atomlarining binar birikmalari asosida geterovarizon strukturali barqaror parametrlarga ega yuqori samarali fotoelementlarni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИКИ ПОЛУПРОВОДНИКОВ И
МИКРОЭЛЕКТРОНИКИ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА
УЗБЕКИСТАНА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТУРЕКЕЕВ ХОЖААХМЕТЖАН САБЫРБАЕВИЧ

**УПРАВЛЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЕМ БИНАРНЫХ СОЕДИНЕНИЙ
ФОСФОРА И ГАЛЛИЯ В КРЕМНИИ**

01.04.10 – Физика полупроводников

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2022.3. PhD/FM488

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ispm.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Зикриллаев Нурулло Фатхуллаевич**
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Эгамбердиев Бахром Эгамбердиевич**
доктор физико-математических наук, профессор

Мамадалиева Лола Камилжановна
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Физико-технический институт Ан РУз**

Защита диссертации состоится «18» «10» 2023 г. в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 при Научно-исследовательском институте физики полупроводников и микроэлектроники Национального университета Узбекистана (Адрес: 100057, Узбекистан, г.Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871)248-79-94, факс: (+99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в отделе внедрения цифровых образовательных технологий института (зарегистрирована за № 58) по адресу: 100057, Узбекистан, г.Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871)248-79-59.

Автореферат диссертации разослан «03» 10 2023 г.
(реестер протокола рассылки № 58 от 03.10 2023 г.).



Ш.Б. Утамурадова
председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

Ж.Ж. Хамдамов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (PhD), с.н.с.

Н.А. Тургунов
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время интенсивное развитие производства микро- и нанoeлектронных полупроводниковых материалов, приборов и устройств на их основе во всем мире служит стимулом для повышения интереса ученых и специалистов, работающих в области материаловедения и приборостроения к созданию новых видов материалов и структур. В этом направлении более актуальным является получение материалов с новыми электрофизическими и фотоэлектрическими свойствами на основе кремния для оптоэлектроники и фотоэнергетики. Изучение электрических и фотоэлектрических свойств кремния, легированного элементами III и V групп таблицы химических элементов, привлекает все большее внимание ученых и специалистов своими, установленными путем исследований новыми, ранее неизвестными электрофизическими и фотоэлектрическими свойствами. Благодаря своим обнаруженным и изученным электрофизическим свойствам (например, высокая фоточувствительность, возможность расширения области спектра поглощения, увеличение времени функционирования, быстроедействие, термостабильность и радиационная стойкость), компенсированный кремний, легированный примесными атомами, которые создают глубокие энергетические уровни в запрещенной зоне, все более широко применяется для создания электронных устройств с уникальными свойствами. Вместе с тем интенсивное развитие микро- и нанoeлектроники требует разработки воспроизводимой технологии получения новых материалов на основе кремния для оптоэлектроники и фотоэнергетики с новыми возможностями.

В настоящее время ученые исследователи ведущих мировых научных центров уделяют большое внимание разработке различных технологий создания новых материалов на основе кремния, изучению электрофизических, фотоэлектрических и оптических свойств материалов, полученных с помощью разработанных технологий, и в свою очередь применению этих материалов в качестве основы в производстве новых электронных устройств.

В нашей Республике осуществляются широкомасштабные исследования по созданию новых материалов и внедрению их в практику, которые будут способствовать повышению эффективности и широкому использованию возобновляемых источников энергии. В «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», среди прочего, поставлены задачи «Непрерывного снабжения экономики электроэнергией и активного внедрения технологий «Зеленой экономики» во все отрасли, повышения энергоэффективности экономики на 20 процентов»¹. При реализации этих задач одной из важных задач считается разработка фотоэлементов с новыми типами бинарных соединений.

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы».

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, в постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4779 «О дополнительных мерах по сокращению зависимости отраслей экономики от топливно-энергетической продукции путем повышения энергоэффективности экономики и задействования имеющихся ресурсов» от 10 июля 2020 года, № ПП-5063 «О мерах по развитию возобновляемой и водородной энергетики в Республике Узбекистан» от 9 апреля 2021 года, № ПП-5032 «О мерах по повышению качества образования и совершенствованию научных исследований в области физики» от 19 марта 2021 года, № ПП-57 «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий» от 16 февраля 2023 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере и изложенных в соответствующих законодательных актах, а также поставленных в других нормативных актах, связанных с данной деятельностью.

